

Sulaymon

payg'ambar qissasi




*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi.*

NUUR

TARJIMONLAR
GURUHI

Sulaymon


payg'ambar qissasi



Özkan Öze
Rassom: Sevgi İçigen


Bu kitobdagi rasmlarda payg'ambarlarning yuzlarini ko'ra olmaysiz. Chunki musulmonlar payg'ambarlarga bo'lgan hurmatlari tufayli ularning rasmlarini chizmaydilar.






**Qadimda, juda juda qadimda
Falastin yurtining shohi Dovud
payg'ambar edi. U yaxshi shoh va
yana Allohning elchisi ham edi.
Uning kecha-yu kunduzi xayrli
ishlarga mashg'ul bo'lish bilan
o'tardi. Alloh unga Sulaymonni
bergandi. Sulaymon Dovud
payg'ambarning o'g'li edi. Va
payg'ambarning o'g'li qanday
bo'lishi kerak bo'lsa, Sulaymon ham
shunday edi. U juda aqlli va yetuk
edi. Va uning Allohni sevadigan
go'zal qalbi ham bor edi.**

Bir kuni Dovud alayhissalomning huzurlariga qishloqdan ikki odam keldi. Ulardan birining qo‘ylari ikkinchisining dalasiga kirgan edi. "Ular mening hosilimni yedi!" — dedi dala egasi. "Ammo menda ayb yo‘q! Men qo‘ylar uning tomorqasiga kirganidan bexabar edim!" - dedi ikkinchisi. Dovud payg‘ambar ularni diqqat bilan tingladi va: "Sen qo‘ylaringni unga berasan!" - dedi. "Chunki qo‘ylaring uning ekinlarini yegan!"





"Lekin ota, - deb e'tiroz bildirdi Sulaymon. - Bu adolatsizlik bo'ladi! Chunki bu odamning qo'ylari dalaga kirganida bu odam bundan bexabar bo'lgan. Qo'ylarni dehqonga vaqtinchalik muddatga beraylik. Ularni sog'ib, bolalariga sutini ichirsin. Ekinlari qaytadan unib chiqqandan keyin, qo'ylarni qaytarib bersin."

Bu fikr Dovud alayhissalomga juda yoqdi. Chunki Sulaymon juda adolatli bir qarorni qilgan edi. Dovud payg'ambar dunyoni tark etganidan keyin Sulaymon shoh bo'ldi.



Alloh unga ham payg'ambarlik berdi. Va xazinasiga barokat berdi. Uning boyligi juda ham ko'payib ketdi. Sulaymon payg'ambar shubhasiz Alloh taologa ko'p shukur qiluvchi banda edi.

Alloh taolo Sulaymon payg'ambarga qushlar tilini o'rgatdi. Qushlar sayrashidan ularning nima deyayotganini tushuna olardi.





Va shamolni ham unga bo'ysundirib qo'ydi. U shamolga minib, juda uzoqlarga bora olardi. Alloh taolo jinlarni ham unga xizmatkor qilib qo'ydi. Ularni har bir yumushda ishga solardi.

Sulaymon payg'ambarni hamma juda yaxshi ko'rar edi. U juda adolatli, juda saxovatli, qalbi pok shoh va buyuk bir payg'ambar edi.

Sulaymon payg'ambarning insonlardan, jinlardan va turli xil hayvonlardan iborat katta bir qo'shini bor edi.

Bir kuni lashkari bilan to'g'ri Makkaga yo'l oldi. Ka'bani ziyorat qildi. U yerda ko'p ibodat qildi. Va qaytishda cho'lda to'xtab, dam oldi. Sulaymon payg'ambarning Hudhud nomli bir qushi bor edi. Negadir u ko'rinmay qolgandi. "Nima uchun Hudhud ko'rinmayapti? Yoki u adashib qoldimi?" - dedi Sulaymon payg'ambar. Ko'p o'tmay Hudhud ko'rinish berdi.






"Sen qayerda eding?" - dedi Sulaymon payg'ambar. U: "Men siz bilmagan bir narsani bilib qoldim", - dedi. Hudhud Saba degan yurtga borgandi.

Sabanning Bilqis ismli malikasi bor edi. Malika Bilqis va xalqi quyoshga sig'inishar edi. Chunki ular Allohga ishonishmasdi. Vaholanki, quyosh Allohning yulduzlaridan bir yulduz edi, xolos. Va osmonda juda ko'p yulduzlar bor edi! Quyoshga sig'inish aqlga hech to'gri keladimi?

"Iblis ularni juda qattiq aldab qo'ygan, - dedi Hudhud. Ular quyoshga sig'inadilar, ammo osmonlar-u yerning Robbisi bitta. U yagona va o'xshashi yo'q Allohdir".

Sulaymon payg'ambar Saba ahlini va malika Bilqisni ogohlantirishi, ularni quyoshga sig'inishdan qaytarishi kerak edi. Chunki u ham shoh, ham payg'ambar edi.





Darhol Bilqisga xat yozdi. Va Hudhudga: “Buni unga yetkaz!” - deb buyurdi. Hudhud xatni oldi. U qanotlarini yoyib, Bilqis saroyi tomon uchdi... Sulaymon payg'ambar maktubida nima yozgan edi? Bilqis buni maktubni ochgach bilib oldi. Unda: “Siz va sizning xalqingiz quyoshga sig'inishni hoziroq to'xtating. Yer, osmon va quyoshning Robbisi bo'lgan Allohga iymon keltiring!” - deyilgandi.

Bilqis xatni o'qib chiqqach, qo'mondonlarini chaqirdi. Ulardan ba'zilari: "Sulaymonga urush e'lon qilaylik! Jang qilaylik",- dedi. Ammo Bilqis aqlli malika edi. "Urush bizni yomon ahvolga soladi!" — deb javob berdi u. Va qimmatbaho sovg'alar bilan, Sulaymon alayhissalomga elchilarini yubordi.





Elchilar uzoq yo'l yurib, Sulaymon payg'ambarning saroyiga yetib kelishdi. Ular qimmatbaho sovg'alarni, olmos, zumrad va marvaridlarni sandiqlardan olib, oldiga qo'yishdi. Ammo Sulaymon payg'ambar ularning birortasiga ham boqmadi. Elchilar juda hayratda qolishdi! Axir kim bunday qimmatbaho sovg'alarga qaramasligi mumkin edi?

Sulaymon payg'ambar ularga: "Agar siz quyoshga sig'inishni to'xtatmasangiz, quyosh va boshqa barcha yulduzlar Robbi Allohga iymon keltirmasangiz yurtingizga qo'shinim bilan boraman!" - dedi. Va u sovg'alarni qabul qilmadi. Ularni elchilar bilan qaytarib yubordi. Elchilar o'z malikalari huzuriga kelganlaridan so'ng, nimalar bo'lganini birin-ketin aytib berishdi.






Ular Sulaymon payg'ambarning
aqlarni hayratda qoldiradigan boyligi
haqida gapirib berishdi... Va uning
muhtasham saroyi va yana qudratli
qo'shini, askarlari, odamlar va
hayvonlardan iborat bo'lgan lashkari
haqida aytib berishdi ...




Bilqis ularga aytdiki: "Men bularni o'z ko'zim bilan ko'rishim kerak. Men o'zim Sulaymon bilan gaplashishim kerak! Shubhasiz, u shunchaki shoh emas! Men uning kimligini bilishim kerak!" Darhol tayyorgarliklar ko'rildi. Saba malikasi katta bir karvon bilan yo'lga chiqdi.






Bilqisning juda qimmatbaho taxti bor edi. Yo'lga chiqishdan oldin uni bir xonaga kirg'azib, hech kim kira olmaydigan qilib qulflashni buyurgandi. Va u xona qat-qat qilib bir nechta eshiklar bilan mahkamlanib, qulflab tashlangandi. Sulaymon payg'ambarga Bilqisning yo'lga chiqqani xabari yetdi. "Malika kelishidan oldin uning taxtini kim menga keltira oladi?" - dedi. G'ayrioddiy xususiyatlarga ega bir Ifrit ismli jin: "Men olib kelaman"- dedi.

Va ko'z ochib-yumguncha, Bilqis taxtini Sulaymon Payg'ambarning saroyiga keltirdi! Karvon yo'llarni qadamma-qadam bosib o'tib Bilqis Sulaymon payg'ambarning muhtasham saroyiga yetib keldi. Qayerga qaramasin, ko'zlari qamashar va juda hayratlanardi. U o'z taxtini ham shu yerda ko'rib, lol bo'lib qoldi. Sulaymon payg'ambar uni shishadan yasalgan bir saroyga taklif qildi.





Saroyning hamma joyi shisha edi, hatto pollari ham! Bundan tashqari uning ostidan suv oqar va ichida rang barang baliqlar suzib yurardi. Bilqis oldin hech bunday narsani ko'rmagan edi. U libosining etagini suv bo'lmasin deb yuqori ko'tardi. Bu holat Sulaymon payg'ambarni kuldirdi. "Havotir olmang!" - dedi. "Kiyimingiz ho'l bo'lmaydi, bu shishadan yasalgan saroy."

Bilqis Sulaymon payg'ambarning shunchaki bir shoh emasligini tushundi. Chunki bu ko'rgan barcha ajib narsalarni oddiy inson qilishi mumkin emasligini bilardi. "U payg'ambar bo'lsa kerak", - deb o'yladi Bilqis. U quyoshga sig'ingan kunlari uchun afsuslandi. Allohga iymon keltirib, unga bandaligini izhor qildi. Saba xalqi ham o'z malikasi kabi quyoshga sig'inishni voz kechdi. Quyosh va boshqa barcha yulduzlarni yaratguvchisi yakka Allohga iymon keltirishdi.





Yana ko'plab mamlakatlar
Sulaymon payg'ambarning to'g'ri
yo'lni ko'rsatgani sababli olovga,
quyoshga, tog' va toshlarga,
butlarga sig'inishdan voz kechib,
Gullar, yulduzlar, chumolilar va
go'zal ko'zli jayronlarni yaratgan
yolg'iz Allohga iymon keltirishdi...



TARJIMONLAR
GURUHI

*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!*

 @nuur_uz